



ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISHNING MEHNAT MUHOFAZASINI TA'MINLASHDAGI ROLI

Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dilya7543101@mail.ru


<https://doi.org/10.5281/zenodo.21028699>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlarning hayoti va sog'lig'ini ishlab chiqarish bilan bog'liq xavflardan himoya qilish davlat ijtimoiy siyosati, mehnat bozori barqarorligi hamda korxonalarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan baxtsiz hodisalar xodimning mehnat qobiliyati va daromad manbayiga zarar yetkazishi bilan birga, ish beruvchi zimmasida katta hajmdagi moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xodimga yetkazilgan zararni kafolatli qoplash, ish beruvchining moliyaviy barqarorligini saqlash va kasbiy tavakkalchiliklarni sug'urta fondi orqali qayta taqsimlashga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy-huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda mazkur sug'urta turi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonun asosida tartibga solinib, uning asosiy maqsadi xodim mehnat vazifalarini bajarishi jarayonida hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan hollarda ish beruvchining javobgarligini moliyaviy jihatdan ta'minlashdan iborat. Biroq majburiy sug'urtaning mehnat muhofazasidagi roli faqat sug'urta tovonini to'lash bilan chegaralanmaydi. Sug'urta tariflari, kasbiy tavakkalchiliklarni baholash, anderrayting nazorati, ogohlantirish tadbirlarini moliyalashtirish va raqamli monitoring vositalari ish beruvchilarni xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga iqtisodiy jihatdan rag'batlantirishi lozim.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari 285,9 mlrd so'mni, sug'urta to'lovlari esa 135,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Amaldagi sug'urta shartnomalari soni 51 144 taga yetgan bo'lsa-da, shu davrda mehnat faoliyati bilan bog'liq 849 ta baxtsiz hodisa qayd etilib, ular oqibatida 961 nafar shaxs jabrlangan va 248 nafar xodim vafot etgan. Mazkur holat sug'urta bozorining miqdoriy kengayishi mehnat xavfsizligi darajasining avtomatik ravishda yaxshilanishini ta'minlamasligini ko'rsatadi.

Shu jihatdan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tizimini kompensatsion mexanizmdan kasbiy xavflarni oldindan aniqlash







va kamaytirishga yo'naltirilgan preventiv instrumentga aylantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisning maqsadi O'zbekistonda ushbu sug'urta turining mehnat muhofazasini ta'minlashdagi iqtisodiy va ijtimoiy rolini baholash, amaldagi tizimdagi muammolarni aniqlash hamda sug'urta qamrovi, riskka asoslangan tariflashtirish, profilaktik moliyalashtirish va raqamli monitoringni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekistonda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bozorining rivojlanishi so'nggi yillarda sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari va qabul qilingan majburiyatlar hajmining oshishi bilan tavsiflanadi. 2021-2025-yillarda mazkur sug'urta turi bo'yicha sug'urta mukofotlari 149,137 mlrd so'mdan 285,879 mlrd so'mgacha, ya'ni 91,7 foizga oshgan. Shu davrda sug'urta to'lovlari 61,199 mlrd so'mdan 135,434 mlrd so'mgacha yoki 121,3 foizga ko'paygan. To'lovlarning mukofotlarga nisbatan tezroq o'sishi majburiy sug'urtaning xodimlarga yetkazilgan zararlarni qoplashdagi real moliyaviy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayni paytda ushbu tendensiya sug'urta zaxiralari, likvid aktivlar va qayta sug'urta himoyasining yetarliligiga nisbatan talablarni kuchaytiradi.

2025-yilda amaldagi sug'urta shartnomalari soni 51 144 taga yetib, 2024-yilga nisbatan 39,9 foizga oshgan. Qabul qilingan sug'urta majburiyatlari esa 180,324 trln so'mdan 248,634 trln so'mgacha yoki 37,9 foizga ko'paygan. Mazkur natijalar sug'urta bozorining shartnomaviy va moliyaviy bazasi kengayayotganini bildiradi. Biroq 2026-yil boshida respublikada faoliyat yuritayotgan 474,9 mingga yaqin korxona va tashkilotga nisbatan amaldagi shartnomalar sonining oddiy nisbati atigi 10,8 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichni rasmiy sug'urta qamrovi sifatida baholab bo'lmaydi, chunki bitta ish beruvchi bir nechta shartnomaga ega bo'lishi, ayrim korxonalarda esa yollanma xodimlar mavjud bo'lmasligi mumkin. Shunga qaramay, mazkur tafovut sug'urta qamrovini noyob ish beruvchilar, xodimlar soni va ish haqi fondi bo'yicha aniq hisobga olish zaruratini ko'rsatadi.

Quyidagi diagramma majburiy sug'urta bozorining miqdoriy kengayishi va to'lov majburiyatlari o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.





1-diagramma. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish ko'rsatkichlari dinamikasi

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda sug'urta majburiyatlari indeksi 253,1 punktga, sug'urta to'lovlari 221,3 punktga, sug'urta mukofotlari 191,7 punktga va amaldagi shartnomalar soni 125,3 punktga yetgan. Demak, qabul qilingan moliyaviy javobgarlik va amalga oshirilgan to'lovlar shartnomalar soniga nisbatan ancha yuqori sur'atlarda o'sgan. Bu holat sug'urta portfelida yirik ish beruvchilar, yuqori ish haqi fondiga ega korxonalar yoki og'ir oqibatli sug'urta hodisalari ulushi ortgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

2024-yilda sug'urta to'lovlari indeksining 213,4 punktga keskin oshgani holda shartnomalar soni indeksi 89,6 punktga pasaygan. Mazkur nomutanosiblik sug'urta to'lovlari joriy davrda tuzilgan shartnomalar soniga bevosita bog'liq emasligini, ayrim to'lovlar oldingi davrlarda yuz bergan hodisalar yoki uzoq muddatli majburiyatlar asosida amalga oshirilishini anglatadi. 2024-yilda to'lovlarning mukofotlarga oddiy nisbati 52,5 foizni, 2025-yilda esa 47,4 foizni tashkil etgan. Biroq ushbu ko'rsatkichni to'liq aktuariy zarar koeffitsiyenti sifatida talqin qilish mumkin emas, chunki ochiq statistikada ishlab topilgan mukofotlar, RBNS va IBNR zaxiralari, qayta sug'urta ulushi hamda zararlarni tartibga solish xarajatlari alohida yoritilmagan.

Majburiy sug'urtaning rivojlanishini mehnat muhofazasi holatidan ajratilgan holda baholash yetarli emas. 2025-yilda O'zbekistonda mehnat faoliyati bilan bog'liq 849 ta baxtsiz hodisa qayd etilib, ular oqibatida 961 nafar shaxs jabrlangan. Shundan 680 nafari og'ir jarohatlangan, 248 nafari vafot etgan. Og'ir jarohatlangan va vafot etgan shaxslarning jami ulushi 96,6 foizni tashkil etgani, ishlab chiqarish hodisalarining yuqori ijtimoiy va iqtisodiy zarar keltirayotganini




ko'rsatadi. Hodisalarning 234 tasi yoki 27,6 foizi qurilish sohasiga to'g'ri kelgan bo'lib, mazkur tarmoqda kasbiy tavakkalchiliklar konsentratsiyasi yuqori ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, 2025-yilda o'tkazilgan 20 650 ta nazorat tadbiri davomida 46 497 ta mehnat qonunchiligi buzilishi aniqlangan va ularning 12 751 tasi bevosita mehnatni muhofaza qilish talablariga tegishli bo'lgan. Bu sug'urta shartnomasi mavjudligi ish beruvchining xavfsizlik talablariga amalda rioya etishini avtomatik ta'minlamasligini ko'rsatadi. Binobarin, amaldagi majburiy sug'urta modeli zarar sodir bo'lganidan keyingi kompensatsiya vazifasini bajarayotgan bo'lsa-da, uning profilaktik va rag'batlantiruvchi ta'siri yetarli darajada shakllanmagan.

Zararlarni qoplash jarayonida ham institutsional muammolar saqlanib qolmoqda. 2025-yilda baxtsiz hodisalar tufayli zarar pullarini undirish bo'yicha sudlarga 285 ta da'vo arizasi kiritilib, ularning 209 tasi qanoatlantirilgan. Mazkur holat ayrim hollarda xodim yoki uning naf oluvchisi sug'urta va mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan tovonni olish uchun qo'shimcha ma'muriy yoki sud tartibiga murojaat qilishga majbur bo'layotganini ko'rsatadi. Bunga sug'urta polisining mavjud emasligi, hodisaning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi yuzasidan nizo, hujjatlarning to'liq taqdim etilmasligi yoki sug'urta summasining real ish haqi fondiga mos kelmasligi sabab bo'lishi mumkin.

Majburiy sug'urtaning preventiv imkoniyati ogohlantirish tadbirlari zaxirasi orqali ham namoyon bo'ladi. Amaldagi tartibga ko'ra, mazkur sug'urta turi bo'yicha yalpi sug'urta mukofotlarining 5 foizi profilaktik tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. 2025-yildagi 285,879 mlrd so'mlik mukofot hajmidan kelib chiqilganda, ushbu zaxiraga nazariy ajratma qariyb 14,3 mlrd so'mni tashkil etadi. Biroq ochiq hisobotlarda mazkur mablag'larning korxonalar, tarmoqlar va profilaktik tadbirlar kesimida sarflanishi hamda baxtsiz hodisalarni kamaytirishga ta'siri to'liq yoritilmagan.

Tahlil natijalari ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish O'zbekistonda xodimlarga yetkazilgan zararlarni qoplash va ish beruvchilarning moliyaviy barqarorligini himoya qilishda muhim bozor mexanizmi sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Biroq sug'urta mukofotlari va shartnomalar sonining o'sishi mehnat xavfsizligi darajasining mutanosib yaxshilanishiga olib kelmagan. Shu sababli mazkur sug'urta turining samaradorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki sug'urta qamrovi, hodisalar chastotasi, zararlarni og'irligi, da'volarni ko'rib chiqish muddati va profilaktik tadbirlarning real natijalari asosida baholanishi lozim.






Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tizimi xodimning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash, ish beruvchining moliyaviy barqarorligini saqlash hamda ishlab chiqarish tavakkalchiliklarini sug'urta fondi orqali qayta taqsimlashda muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Biroq sug'urta mukofotlari, shartnomalar va qabul qilingan majburiyatlar hajmining o'sishi mehnat xavfsizligining avtomatik ravishda yaxshilanishini ta'minlamaydi. Ishlab chiqarishdagi og'ir va o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar ulushining yuqoriligi, zararlarni undirish bo'yicha sudga murojaatlar mavjudligi hamda sug'urta va mehnat inspeksiyasi ma'lumotlarining o'zaro integratsiyalashmaganligi amaldagi tizimda kompensatsion funktsiya profilaktik funktsiyaga nisbatan ustun ekanini ko'rsatadi. Shu sababli majburiy sug'urta samaradorligi nafaqat yig'ilgan mukofotlar va amalga oshirilgan to'lovlar, balki sug'urta qamrovi, hodisalar chastotasi, zararlarning og'irligi, da'volarni ko'rib chiqish muddati va xodimlarga tovon to'lashning to'liqligi asosida baholanishi lozim.

Mazkur tizimni takomillashtirish uchun ish beruvchilar, sug'urta tashkilotlari, soliq organlari va Davlat mehnat inspeksiyasi ma'lumotlarini yagona raqamli reyestrda birlashtirish, polisga ega bo'lmagan ish beruvchilarni avtomatik aniqlash hamda sug'urta hodisasidan to'lov amalga oshirilguniga qadar bo'lgan jarayonni raqamli monitoring qilish zarur. Sug'urta tariflariga korxonaning individual zararlar tarixi, mehnat muhofazasi auditi, hodisalar chastotasi va profilaktik investitsiyalarini hisobga oluvchi bonus-malus mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ogohlantirish tadbirlari zaxirasi mablag'larini yuqori xavfli tarmoqlarga yo'naltirish, ularning natijadorligini baxtsiz hodisalar va sug'urta zararlarning kamayishi asosida baholash, sug'urta kompaniyalari kesimida mukofotlar, to'lovlar va zarar koeffitsiyentlari bo'yicha ochiq statistikani kengaytirish lozim. Ushbu choralar majburiy sug'urtani faqat zararlarni qoplash vositasidan mehnat xavfsizligini iqtisodiy rag'batlantiruvchi, kasbiy tavakkalchiliklarni oldindan boshqaruvchi va xodimlarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlovchi samarali bozor mexanizmiga aylantiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi (2009). "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'RQ-210-son, 16-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi (2016). "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'RQ-410-son, 22-sentabr.





3. Nomozova, Q.I. (2025). Improvement of Capital Requirements in Insurance Companies of Uzbekistan. European Science Review, № 3-4, 38-42-betlar.
4. Ergasheva, F.Sh. (2025). Investitsionnye strategii straxovykh kompaniy kak faktor finansovoy ustoychivosti. Moliya, pul va kredit, № 6, 268-281-betlar.
5. Shennayev, X.M. (2013). O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 260 bet.
6. International Labour Organization (2013). Strengthening the Role of Employment Injury Schemes to Help Prevent Occupational Accidents and Diseases. Geneva: International Labour Office.
7. Fishback, P.V. and Kantor, S.E. (1994). Insurance Rationing and the Origins of Workers' Compensation. NBER Working Paper No. 4943. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research.

